

BOJXONA HUDUDIDA QAYTA ISHLASH REJIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Lutpullayev Shukrullo Kudratullayevich

Bojxona instituti Bojxona nazorati kafedrası boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada yer yuzida resurslar, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchining noteng taqsimlanishi natijasida xalqaro savdo va ishlab chiqarishda yuzaga kelayotgan iqtisodiy nomutanosibliklar tahlil qilinadi. Ayrim hududlarda xomashyo ortiqcha bo‘lishi, boshqa hududlarda esa ishlab chiqarish quvvatlarining to‘liq ishlamasligi sababli tovar narxlarida sezilarli farqlar shakllanishi ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shu nuqtayi nazardan, bojxona hududida qayta ishlash rejimining mazkur muammolarni bartaraf etishdagi roli va ahamiyati ochib beriladi. Maqolada qayta ishlash operatsiyalarining jahon iqtisodiyotida rivojlanish bosqichlari, ishlab chiqarishning geografik migratsiyasi hamda neoklassik nazariya doirasida mehnat xarajatlari bilan bog‘liq omillar yoritiladi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlash rejimidan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari, uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish va yangi ish o‘rinlari yaratishdagi ahamiyati baholanadi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, qayta ishlash bojxona rejimi salmog‘ining pasayish sabablari va uni faollashtirishga doir xulosa hamda takliflar ilgari suriladi.

Yer yuzida resurslar va ishlab chiqarish vositalarining teng taqsimlanmaganligi doimo bir tovar uchun turli hududlarda turli narxlar shakllanishiga sabab bo‘lib kelgan. Ayrim hududlarda xomashyo keragidan ortiq, lekin, ularni qayta ishlash uchun zarur uskuna va ishchi kuchi yetishmasa, ayrimlarida o‘z vaqtida xomashyo bilan ta‘minlab berilmasligi natijasida zavod va korxonalar to‘liq quvvat bilan ishlamaydi. Natijada, keragidan ortiq tovarlarning o‘sha hududda narxi pasayib ketadi, ushbu tovarga ehtiyoj yuqori bo‘lgan boshqa hududda bunday tovarlarning transport xarajatlari va bojxona to‘lovlari yuqoriligi sababli ularni qayta ishlashning rentabelligi darajasi past bo‘ladi. O‘z - o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bunday holatda har ikkala hudud ham iqtisodiy jihatdan kam foyda ko‘radi. Shunday holda har ikkala hudud uchun ham eng maqbul yechim –

xomashyo arzon hududdan xomashyoni olib, zavodlari to'liq hajm bilan ishlamayotgan hududda soliqlar va bojxona to'lovlaridan imtiyozli shartlarda qayta ishlashni yo'lga qo'yish hisoblanadi.

Qayta ishlash arzon ishchi kuchi bo'lgan mamlakatlar (Xitoy, Meksika), shuningdek, iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo'lgan davlatlar (AQSH, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari) tomonidan qo'llaniladi. Bojxona protseduralarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro konvensiya qayta ishlash bojxona rejimlaridan faol foydalanishni tavsiya qiladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qayta ishlashdan foydalanish chet el sarmoyasini jalb qilish, arzon ishchi kuchi, soliq imtiyozlari va mehnat qonunchiligining harakatlari tufayli yuzaga keladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa qayta ishlash rejimi notarif to'siqlarni chetlab o'tishga imkon beradi.

Qayta ishlash operatsiyalaridan foydalanish o'zining hozirgi rivojlangan darajasiga yetgunga qadar qariyb yarim asrlik yo'lni bosib o'tdi. 60-yillardan boshlab ishlab chiqarishning uchta yirik geografik migratsiyasi ajralib chiqdi Birinchi ko'chish AQSH va G'arbiy Yevropa mamlakatlari Yaponiyada ishlab chiqarishni rivojlantira boshlaganida yuz berdi. Keyingi qiziqishlarning yo'nalishi (ikkinchi to'lqin) o'tgan asrning 70-80-yillarida "Katta Osiyo uchligi" deb nomlangan mamlakatlar - Gonkong, Tayvan va Janubiy Koreya yedi. 1990-yillarda ishlab chiqarish Xitoy, Janubiy Osiyo va Lotin Amerikasiga ko'chdi.


Neoklassik nazariya bu jarayonga oddiy tushuntirish beradi - ishlab chiqarishning ko'p mehnat talab qiladigan bosqichlari ishchi kuchi xarajatlari ancha past bo'lgan joylarga ko'chib o'tdi.

Bojxona hududida qayta ishlash rejimini qo'llashdan asosiy maqsad, mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun o'z mahsulot va xizmatlarini teng raqobat muhitidagi xalqaro bozorlarda realizatsiya qilish va buning natijasida milliy iqtisodiyotda ishlab chiqarishni rivojlantirish, shu bilan birga ishlab chiqarish quvvatlarini xomashyo bilan ta'minlash va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishdan iborat. Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi katta ahamiyati va rejimni qo'llashda berilayotgan imtiyozlarga qaramasdan ushbu rejimning salmog'i yildan yilga kamayib borayotganligi salbiy holat albatta.

O'zbekiston Respublikasida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirilgan tovarlar (2022-2024-yillar)

	2022		2023		2024	
	Qayta ishlash	Ta'mirlash	Qayta ishlash	Ta'mirlash	Qayta ishlash	Ta'mirlash
Deklaratsiya soni	1861	202	1068	306	253	435
Tovarlar vazni (ming tonna)	649,14	3,88	507,75	11,14	66,88	11,06
Qiymati (ming AQSH dollari)	259 482,87	10 816,41	166 601,20	42 424,60	32 582,86	35 268,89

Bundan tashqari ushbu davr mobaynida ko'rsatilgan tovarlarni qayta ishlash xizmatlari qiymati tahlil qilinganda ham pasayish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin.



Bojxona hududida qayta ishlash rejimi doirasida ko'rsatilgan xizmatlar qiymati

(2017-2019-yillar, ming AQSH dollarida)

2019-yilda rejimdan foydalanishda asosiy xomashyo yetkazib beruvchi hamkor davlatlar Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Xitoy va Qirg'iziston davlatlari bo'lishgan
(6-jadval).

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi doirasida asosiy xomashyo yetkazib beruvchi hamkor davlatlar

6-jadval

Davlatlar	Qiymati, mln. AQSH dollari	Ulushi, %
Qozog'iston	10,59	32%
Tojikiston	6,61	20%
Turkmaniston	6,25	19%
Germaniya	2,37	7%
Fransiya	1,37	4%
Buyuk Britaniya	1,30	4%
Xitoy	1,26	4%
Qirg'iziston	1,10	3%
Boshqalar	1,74	5%

Yildan yilga ushbu rejimga rasmiylashtirilayotgan tovarlar hajmi sezilarli kamayib ketmoqda. Biroq tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan yillar mobaynida tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirish kamayishiga

qaramasdan ushbu rejimga rasmiylashtirilgan tovarlar bugungi kunga kelib boshqa rejimga rasmiylashtirilib sanoatda qayta ishlanmoqda va xorijiy sheriklarga yetkazib berilmoqda.

O‘zbekistonda qayta ishlovchi korxonalar tomonidan eng ko‘p qayta ishlangan chet el tovarlari (tonnada)

7-jadval

Tovar turi	2023 yil	2024 yil	2025 yil	Jami
1) Bug‘doy	332 539,21	357 226,10	29 550,78	719 316,09
2) Ruxli qorishma	114 376,87	111 886,75	16 245,20	242 508,81
3) Qora metall	115 040,48	8 554,53	59,88	123 654,89
4) Benzin (52-65)	39 043,66	0,00	11 118,70	50 162,36
5) Misli qorishma	30 340,86	3 296,01	0,00	33 636,87
6) Neft	5 667,66	23 677,83	7 194,77	36 540,26
7) Dizel yoqilg‘isi	2 201,64	0,00	0,00	2 201,64
8) Rux oksidi	1 547,06	406,02	0,00	1 953,08
9) Kungaboqar yog‘i	0,00	0,00	1 320,00	1 320,00

Buning asosiy sabablari sifatida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga rasmiylashtirish bir muncha murakkab bosqichlarni o‘z ichiga olishida deb bilamiz.

O‘zbekiston Respublikasida ham bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanishni rivojlantirgan holda **bojxonani iqtisodiyotning tayanchiga aylantirish** uchun barcha imkoniyatlar mavjudligini quyidagi tahlillardan kuzatish mumkin:

birinchidan, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida aholi soni jihatidan eng ko‘p (35 mln.) ekanligi unda arzon ishchi kuchini ta’minlab beradi;

ikkinchidan, 2017-2019-yillarda mamlakatimizga xorijdan qiymati 11 milliard 38 million AQSH dollariga teng bo‘lgan texnologik asbob uskuna keltirilgan;

uchinchidan, mintaqadagi boshqa davlatlarda O‘zbekiston Respublikasidagi kabi ishlab chiqarish imkoniyatlari yaxshi rivojlanmagan.

Qayta ilash rejimlaridan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatkichlarning kamayib ketishining asosiy sabablaridan biri – ushbu rejimdan foydalanadigan “Olmaliq TKMK”,

“O‘zmetkombinat”, “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” kabi yirik davlat korxonalari tomonidan ushbu rejimdan foydalanish hajmining kamayganligi bo‘lsada, rejimning imkoniyatlaridan samarali foydalanilmayotganligiga quyidagi bir qator omillar ham ta’sir ko‘rsatmoqda:

1) Tadbirkorlik subyektlarining aksariyat qismida bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi, uning imkoniyatlari to‘g‘risida tushunchaga ega emas;

2) bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanish talablari va shartlari juda murakkab. Tovarlarining chiqish normasini belgilash va qayta ishlash mahsulotlarini identifikatsiya qilish jarayonlarining qiyinligi sababli tadbirkorlik subyektlari ushbu rejimdan foydalanishni afzal ko‘rishmaydi;

3) ayrim tadbirkorlik subyektlarining ushbu rejim imkoniyatlaridan egri maqsadlarda foydalanib, tovarlarni almashtirib qo‘yish, qaytarib olib chiqib ketilishi lozim bo‘lgan tovarlarni ichki bozorga sotib yuborish holatlari ko‘p uchraganligi sababli bojxona organlari tomonidan bu rejimga joylashtirilgan tovarlar ustidan kuchliroq nazorat amalga oshiriladi;

4) qonunchilikka muvofiq, ushbu rejimdan foydalanish uchun buyurtmachi bilan qayta ishlash shartnomasi tuzilishi lozim. Buning uchun tadbirkorlik subyekti (qayta ishlovchi) birinchi galda buyurtmachini qidirib topishi, undan qayta ishlash uchun xomashyo yetkazib berish bo‘yicha masalalarni hal qilishi lozim. Buyurtmachilar esa qayta ishlovchi uchun xomashyo topib berishdan ko‘ra, qimmatroq bo‘lsa ham ortiqcha harakatlarsiz tayyor mahsulotga ega bo‘lishni afzalroq ko‘rishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References)

1. Федеральный закон "О таможенном регулировании в Российской Федерации и о внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации" от 03.08.2018 N 289-FZ.
2. Приказ ФТС России от 20-сентября 2011 г. N 1914 "Об утверждении типовых форм соглашения, заключаемого между таможенным органом и уполномоченным экономическим оператором".

3. “Vzaimodeystviye upolnomochennyykh ekonomicheskikh operatorov s tamojennymi organami i primeneniye sistemy upravleniya riskami pri kontrole ix deyatelnosti” Borisova Ye.M., Nersisyan V.S. Sankt-Peterburgskiy filial Rossiyskoy tamojennoy akademii Bit 2023 tom 3 № 4.
4. “K voprosu o vzaimnom priznanii pravovogo statusa ueo v praktike tamojennogo administrirovaniya” Rylskaya.M.A, Nekrasov D.V
5. F.Schneider, D.Enste. Hiding in the Shadows (The Growth of the Underground Economy) Economic issues No. 30 International Monetary Fund.
6. “Sompendum of Authorized Economic Operator programmes” 2018-2023 yil nashrlari
7. “Safe framework of standards” 2025 yil nashri.
8. “Instruction Manual on Authorised Economic Operators” 2025 yil nashr.
9. “Customs-Business Partnership Guidance” 2025 nashr